# INKLYUZIV TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIK TAMOYILLARI

Ilmiy rahbar: **D.E.Abduqodirova**
CHDPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
orcid 0009-0008-4155-8330
abduqadirovadilobarbonu@gmail.com
**Shaniyazova Nargiza**
Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi
nargizashaniyazova4@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim muhitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlik masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot inklyuziv ta'lim jarayonida sun'iy intellekt tizimlarining o'quvchilarning emotsional farovonligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatli, fanlararo hamda konseptual-analitik yondashuv asosida olib borildi. Kontent tahlil va taqqoshlama tahlil metodlari yordamida sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlarining psixologik xavfsizlikka ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va avtomatlashtirilgan baholashning salbiy ta'siri kabi xavf omillari ham aniqlab olindi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik nazorat, psixologik xizmatlar va etik tamoyillar bilan uyg'un holda qo'llash o'quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, sun'iy intellekt, psixologik xavfsizlik, algoritmik tarafkashlik, pedagogik nazorat, emotsional farovonlik, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы обеспечения психологической безопасности при использовании технологий искусственного интеллекта в инклюзивном образовании. Исследование направлено на анализ влияния систем искусственного интеллекта на эмоциональное благополучие обучающихся, уровень их самооценки и социальную адаптацию. Методология исследования основана на качественном, междисциплинарном и концептуально-аналитическом подходе. С помощью методов контент-анализа и сравнительного анализа изучены как положительные возможности искусственного интеллекта в поддержке психологической безопасности обучающихся, так и потенциальные риски, включая алгоритмическую предвзятость, проблемы конфиденциальности персональных данных и негативные последствия автоматизированных систем оценки. Результаты исследования показывают, что эффективное применение технологий искусственного интеллекта в инклюзивном образовании возможно только при их интеграции с педагогическим контролем, психологической поддержкой и соблюдением этических принципов.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, искусственный интеллект, психологическая безопасность, алгоритмическая предвзятость, педагогический контроль, эмоциональное благополучие, цифровое образование, адаптивное обучение.

**Abstract.** This article examines the issue of psychological safety in the use of artificial intelligence technologies in inclusive education. The study focuses on analyzing the impact of AI-based educational systems on students' emotional well-being, self-esteem, and social adaptation. The research methodology is based on a qualitative, interdisciplinary, and conceptual-analytical approach. Content analysis and comparative analysis methods were used to identify both the positive opportunities of artificial intelligence in supporting psychological safety and potential risks, including algorithmic bias, data privacy concerns, and the negative effects of automated assessment systems. The findings indicate that the effective implementation of artificial intelligence technologies in inclusive education requires their integration with pedagogical supervision, psychological support, and adherence to ethical principles. Such an approach contributes to creating a safe, supportive, and inclusive learning environment for all students.

**Keywords:** inclusive education, artificial intelligence, psychological safety, algorithmic bias, pedagogical supervision, emotional well-being, digital education, adaptive learning.

## KIRISH

So‘nggi yillarda global ta’lim makonida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi nafaqat ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyiliga asoslangan pedagogik model sifatida, balki shaxsning psixologik farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta’lim sohasiga kirib kelishi inklyuziv ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. SI asosidagi adaptiv o‘quv platformalari, intellektual baholash tizimlari, o‘quv faoliyatini prognozlash va individual rivojlanish trayektoriyalarini modellashtirish vositalari maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining asosiy ustunligi shundaki, ular o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlari, o‘rganish sur’ati, emotsional holati va xulq-atvor dinamikasini doimiy tahlil qilish orqali moslashtirilgan pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa an’anaviy ta’lim tizimida ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan individual psixologik ehtiyojlarni aniqlash va qondirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, rivojlanishida cheklovlari bo‘lgan, o‘rganishda qiyinchilikka duch keladigan yoki ijtimoiy moslashuvi sust bo‘lgan o‘quvchilar uchun SI texnologiyalari o‘quv jarayonini yengillashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim muhitida sun’iy intellektdan foydalanish faqat texnologik samaradorlik yoki didaktik qulaylik bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ushbu jarayon chuqur psixologik mas’uliyatni talab etadi. Chunki inklyuziv ta’limning markazida o‘quvchi shaxsi, uning qadr-qimmati, emotsional barqarorligi va psixologik xavfsizligi turadi. Psixologik xavfsizlik tushunchasi shaxsning o‘zini tahdidlardan xoli, hurmat qilinadigan va qabul qilingan subyekt sifatida his etishi, o‘z fikrini erkin ifodalashi hamda salbiy baholash, stigmatizatsiya va diskriminatsiyadan himoyalangan bo‘lishini anglatadi.

Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining noto‘g‘ri yoki nazoratsiz joriy etilishi inklyuziv ta’limning asosiy psixologik tamoyillariga zid oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Algoritmik tarafkashlik (algorithmic bias), shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining rigidligi va inson omilining yetarli

darajada hisobga olinmasligi o‘quvchilarda o‘zini past baholash, doimiy nazorat ostida bo‘lish hissi, xavotir va stress holatlarini kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun bunday salbiy psixologik ta’sirlar ijtimoiy chetlanish, o‘ziga ishonchsizlik va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, inklyuziv ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi faqat texnik imkoniyatlar nuqtai nazaridan emas, balki psixologik xavfsizlik, etik me’yorlar va insonparvarlik tamoyillari asosida kompleks tarzda o‘rganilishi zarur. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi inklyuziv ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlikni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, mavjud xavf omillarini aniqlash hamda pedagogik-psixologik jihatdan asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan sifatli (qualitative), fanlararo va konseptual-analitik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inklyuziv ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlikni ta’minlashga oid nazariy asoslarni tizimlashtirish, mavjud ilmiy yondashuvlarni solishtirish va ularning psixologik oqibatlarini chuqur tahlil qilishdan iborat bo‘lganligi sababli, empirik eksperimentdan ko‘ra nazariy-analitik metodlar ustuvor deb belgilandi.

Tadqiqot jarayonida psixologiya**,** inklyuziv pedagogika**,** ta’lim texnologiyalari**,** axloqiy-etika**,** raqamli xavfsizlik va ijtimoiy siyosat sohalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o‘rganildi. Manbalar tanlovi sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi psixologik ta’siri, o‘quvchilarning emotsional farovonligi, shaxsiy daxlsizlik, algoritmik boshqaruv va etik xavflar bilan bog‘liq mezonlar asosida amalga oshirildi. Xususan, OECD, UNESCO, hamda zamonaviy ta’lim sotsiologiyasi va psixologiyasi vakillarining (Selwyn, 2019; Williamson, 2020; Holmes et al., 2019) ilmiy ishlari asosiy nazariy tayanch sifatida tanlandi.

Tahlil jarayonida kontent tahlil (content analysis) metodi asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida tanlangan ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, kategoriyalar va nazariy yondashuvlar aniqlanib, ularning psixologik xavfsizlik konsepsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Kontent tahlil natijasida inklyuziv ta’limda SI texnologiyalarining ijobiy psixologik imkoniyatlari bilan bir qatorda, xavf omillari va potentsial salbiy ta’sirlari ham aniqlashtirildi[1].

Shuningdek, tadqiqotda analitik-taqqoshlama (comparative-analytical) yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv orqali turli mamlakatlar va ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilish tajribasi, ularning psixologik xavfsizlikka ta’siri hamda etik tartibga solish mexanizmlari o‘zaro solishtirildi. Natijada, inklyuziv ta’lim kontekstida samarali va xavfsiz bo‘lgan yondashuvlar umumlashtirilib, muammoli jihatlar aniqlab olindi.

Metodologik tahlil quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli ravishda olib borildi:birinchidan, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarining o‘quvchilarning psixologik xavfsizligiga ta’siri**,** xususan, doimiy monitoring va baholash jarayonlarining emotsional holatga ko‘rsatadigan ta’siri;ikkinchidan, algoritmik qarorlar va avtomatlashtirilgan tavsiyalarning o‘quvchilarning o‘zini baholashi, o‘ziga ishonchi va kasbiy hamda akademik identifikatsiyasiga ta’siri**;**uchinchidan, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va psixologik daxlsizlik masalalari**,** ya’ni raqamli muhitda o‘quvchining shaxsiy hududi va ichki psixologik chegaralarining saqlanishi;

[1] N. Selwyn. *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education.* Cambridge: Polity Press, 2019.

to‘rtinchidan, pedagogik nazorat va inson omilining psixologik himoyani ta’minlashdagi o‘rni, bunda sun’iy intellekt yordamchi vosita sifatida ko‘rilib, asosiy mas’uliyat pedagog va psixolog zimmasida qolishi zarurligi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat’iy rioya qilindi. Inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inklyuzivlik va adolat prinsiplariga amal qilish, diskriminatsiyaning oldini olish, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash hamda o‘quvchilarning ongli roziligini (informed consent) e’tiborga olish metodologiyaning asosiy ustunlari sifatida belgilandi. Psixologik xavfsizlik nafaqat natija, balki tadqiqotning o‘zi davomida ham saqlanishi lozim bo‘lgan asosiy qadriyat sifatida qaraldi.

Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuv inklyuziv ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlik masalasini kompleks, tizimli va insonparvarlik tamoyillari asosida tahlil qilish imkonini berdi hamda keyingi muhokama va xulosalar uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari inklyuziv ta’lim muhitida psixologik xavfsizlikni ta’minlashda dual (ikki tomonlama) xarakterga ega bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham rivojlantiruvchi imkoniyatlar, ham potensial psixologik xavflar manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu holat sun’iy intellektning texnologik xususiyatlari emas, balki uni ta’lim jarayoniga qanday metodologik va etik asoslarda integratsiya qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

Bir tomondan, SI asosidagi adaptiv va diagnostik tizimlar o‘quvchilarning individual psixologik ehtiyojlarini aniqlash, ularning emotsional holatini monitoring qilish va stress darajasini erta aniqlash imkonini beradi. Bu esa inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning psixologik farovonligini saqlash, xavotir va frustratsiyani kamaytirish, shuningdek, ta’lim jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun individual moslashtirilgan ta’lim strategiyalarining mavjudligi o‘zini qabul qilish, o‘ziga ishonch va shaxsiy qadr-qimmat hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan shaxsiylashtirilgan ta’lim muhitlari o‘quvchilarning muvaffaqiyat tajribasini oshiradi, bu esa motivatsiyaning ichki manbalarini faollashtiradi. Psixologik nuqtai nazardan, bunday yondashuv o‘rganilgan ojizlik (learned helplessness) holatining oldini olishga, o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini tiklashga yordam beradi. Shu ma’noda, SI texnologiyalari to‘g‘ri boshqarilganda inklyuziv ta’limda psixologik xavfsizlikni mustahkamlovchi resurs sifatida qaralishi mumkin.

Biroq, tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilishi psixologik xavfsizlik uchun jiddiy tahdidlar tug‘diradi. Algoritmik baholash tizimlarining shaffof emasligi, qaror qabul qilish mexanizmlarining o‘quvchi va pedagoglar uchun tushunarsiz bo‘lishi o‘quvchilarda ishonchsizlik, xavotir va nazorat ostida bo‘lish hissini kuchaytirishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun psixologik jihatdan sezilarli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Avtomatlashtirilgan xulosalar va reytinglash mexanizmlari noto‘g‘ri talqin qilinganda, o‘quvchilarni stigmatizatsiya qilish, salbiy yorliqlash va ularni doimiy “xavf guruhi” subyekti sifatida qabul qilish holatlari yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Psixologiya fanida bunday jarayonlar o‘z-o‘zini past baholash, ichki konfliktlar va ijtimoiy chetlanish bilan chambarchas bog‘liq

ekanligi isbotlangan[2]. Natijada, sun'iy intellekt o'quvchini qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lish o'rniga, uning shaxsiy rivojlanishini cheklovchi omilga aylanishi mumkin.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining inklyuziv ta'limdagi samaradorligi inson omilining saqlanib qolishi bilan bevosita bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida insoniy muloqot, empatiya, hissiy qo'llab-quvvatlash va individual yondashuvni to'liq raqamli tizimlar bilan almashtirib bo'lmaydi. Shu sababli, SI texnologiyalari pedagog va psixolog faoliyatini to'ldiruvchi, yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi lozim.

Pedagogik nazorat va psixologik xizmatlar bilan uzviy integratsiya qilinmagan sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilar uchun psixologik bosim manbaiga aylanishi mumkin. Aksincha, pedagog, psixolog va texnolog mutaxassislarining hamkorlikdagi faoliyati orqali yaratilgan integrativ model inklyuziv ta'limda psixologik xavfsizlikni ta'minlashning eng maqbul yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Bunda pedagog — didaktik jarayonni, psixolog — emotsional va shaxsiy farovonlikni, texnolog mutaxassisi esa tizimning texnik va algoritmik shaffofligini nazorat qiladi.

Shunday qilib, muhokama natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini inklyuziv ta'limda qo'llash qat'iy ilmiy, etik va psixologik mezonlarga asoslanishi zarurligini ko'rsatadi. Faqatgina ana shunday yondashuvgina sun'iy intellektni psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi, insonparvar va barqaror ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositaga aylantira oladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlikni ta'minlash strategik, fundamental va ajralmas omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida SI texnologiyalari individuallashtirilgan o'qitish, moslashtirilgan pedagogik intervensiyalar va o'quvchilarning rivojlanish trayektoriyasini aniqlash imkonini bergani holda, ularning psixologik holatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni joriy etishda faqat texnik samaradorlik emas, balki o'quvchilarning emotsional farovonligi, shaxsiy qadr-qimmati va ijtimoiy himoyasi ustuvor mezon sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik xavfsizlik ta'minlangan sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalari inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga xizmat qiladi. Bunday muhitda o'quvchilar o'zini hurmat qilinadigan, qabul qilingan va qo'llab-quvvatlanadigan shaxs sifatida his etadi. Bu esa ularning o'zini anglash jarayoni, emotsional barqarorligi, ichki motivatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Psixologik jihatdan xavfsiz ta'lim muhiti o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etishi, xatolardan qo'rqmasdan o'rganishi va shaxsiy rivojlanish yo'lini ongli ravishda tanlashiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, mazkur tahlil sun'iy intellekt texnologiyalarining inklyuziv ta'limda inson omilini cheklamasligi**,** aksincha, uni kuchaytirishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Psixologiya nuqtai nazaridan, empatiya, hissiy qo'llab-quvvatlash, individual muloqot va pedagogik sezgirlik kabi insoniy resurslarni algoritmik tizimlar bilan to'liq almashtirib bo'lmaydi. Shu bois, sun'iy intellekt texnologiyalari pedagog va psixolog faoliyatini to'ldiruvchi, tahliliy va yordamchi vosita sifatida talqin etilishi lozim.

Psixologik xavfsizlikni ta'minlashda etik tamoyillarga amal qilish, algoritmik shaffoflikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini himoyalash va diskriminatsiyaning oldini olish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda, sun'iy intellekt tizimlari

[2] B. Williamson. *Big Data in Education: The Digital Future of Learning, Policy and Practice.* London: Sage Publications, 2020.

inklyuziv ta'limning insonparvar mohiyatiga zid bo'lgan salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham, SI texnologiyalarini joriy etish jarayoni doimiy psixologik monitoring, pedagogik nazorat va fanlararo hamkorlik asosida olib borilishi zarur.

Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalari inklyuziv ta'limda insonni almashtiruvchi emas, balki uning psixologik farovonligini, shaxsiy rivojlanishini va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlovchi strategik vosita sifatida baholanishi lozim. Aynan shunday yondashuvgina inklyuziv ta'limda adolatli, xavfsiz va barqaror ta'lim muhitini shakllantirishga, har bir o'quvchining qadr-qimmatini hurmat qilgan holda uning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi "Inklyuziv ta'lim sharoitida o'uvchilarning emotsional intellektini rivojlantirishning psixologik-pedagogik Asoslari" Scientific-Practical Conference "Inclusive Education: Dialogue, Analysis, Experience", December 15, 2025
2. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2024). EMOTSIONAL KREATIVLIK: NAZARIY ASOSLARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.. Journal of Economics and Business UBS. 4. 679-685.
3. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). HISSIY IJODKORLIK: TUSHUNCHA VA KOMONENTLAR. Journal of Economics and Business UBS. 4. 145-154.
4. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE NEUROGRAPHIC APPROACH. 01. 501-503.
5. Abduqodirova, Dilobarbonu. (2025). TALABALARDA PSIXOLOGIK STRESSNI YENGISH. 03. 69-73.
6. Day, C. (2018). *Professional identity, well-being and effectiveness in teaching.* Oxford University Press.
7. Edmondson, A. (2018). *The Fearless Organization: Creating Psychological Safety in the Workplace for Learning, Innovation and Growth.* Wiley.
8. Eshnayev, Nortoji & Madgapilova, Nargiza. (2023). CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING THE CLUSTER APPROACH IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. International Journal of Pedagogics. 03. 44-47. 10.37547/ijp/Volume03Issue02-09.
9. Furlong, J., & Oancea, A. (2016). *Educational Research and Evidence-Based Practice.* Oxford University Press.
10. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Boston: Center for Curriculum Redesign.
11. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning.* Center for Curriculum Redesign.
12. Madgapilova, Nargiza. (2023). THE SPECIFICS OF THE IMPLEMENTATION OF THE PEDAGOGICAL INNOVATIVE CLUSTER APPROACH IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION. 1. 236-244.

13. Madgapilova, Nargiza. (2024). mug‘allim 2024. 5/2-сан. 461-468.
14. Madgapilova, Nargiza. (2025). SCIENTIFIC-PRACTICAL AND STRATEGIC BASES OF IMPROVING PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL COOPERATION IN THE INTEGRATION OF SCHOOL AND PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN THE CONTEXT OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE LOGISTICS. 1. 157-166.
15. Madgapilova, Nargiza. (2025). МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал. 164-170.
16. OECD. (2020). *The Impact of Artificial Intelligence on Learning, Teaching and Education.* OECD Publishing.
17. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education.* Polity Press.
18. UNESCO. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development.* UNESCO Publishing.
19. Williamson, B. (2020). *Big Data in Education: The Digital Future of Learning, Policy and Practice.* Sage Publications.